



**XALQ DEPUTATLARI SHAROF RASHIDOV TUMANI
KENGASHINING
Q A R O R I**

2026-yil 9-iyun VII-23-84-3-46-K/26 Sharof Rashidov tumani

**Sharof Rashidov tumanida Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan
tuman markaziy ko'chalari bo'yidagi tadbirkorlik subyektlari bilan
tuzilgan shartnoma asosida chiqindilarni olib chiqish va hududlarni
obodonlashtirish xizmatini ko'rsatganlik bo'yicha tariflar belgilash
to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrda
"Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish,
budjet intizomini kuchaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi
PQ-387-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida, "Mahalliy davlat hokimiyati
to'g'risida"gi Qonunning 6-, 24-moddalariga asosan xalq deputatlari Sharof
Rashidov tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrda
"Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish,
budjet intizomini kuchaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi
387-sonli qarori 8-bandi a-kichik bandida 2026-yil 1-yanvardan boshlab
obodonlashtirish boshqarmalari tomonidan tuman (shahar)lar markaziy
ko'chalari bo'yidagi tadbirkorlik subyektlari bilan tuzilgan shartnoma asosida
chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatini ko'rsatishga
ruxsat beriladi. Bunda chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish
xizmatini ko'rsatganlik bo'yicha tariflar tuman (shahar)lar hokimliklari
tomonidan Xalq deputatlari tuman (shahar)lar kengashlariga ko'rib chiqish va
tasdiqlash uchun kiritish vakolati berilganligi ijro uchun qabul qilinsin.

2. Sharof Rashidov tuman hokimligining 2026-yil 22-apreldagi 03-80-sonli
xati ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Sharof Rashidov tuman Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan tuman markaziy ko'chalari bo'yidagi tadbirkorlik subyektlari bilan tuzilgan shartnoma asosida chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatini ko'rsatganlik bo'yicha belgilangan tariflar narxi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Sharof Rashidov tuman hokimining birinchi o'rinbosari M.Ergashev, Sharof Rashidov tuman Obodonlashtirish boshqarmasi (K.Saidov)ga mazkur qaror ijrosini o'z vaqtida va samarali ta'minlash vazifalari yuklatilsin.

5. Ushbu qaror "Jizzax tongi.uz" gazetasida rasmiy e'lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

6. Ushbu qaror rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran uch oy o'tgach kuchga kiradi.

7. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish, xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budget, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (M.Isakov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



**AKBAROVA
SHOIRA
UKTAMOVNA**

Xalq deputatlari Sharof Rashidov tumani
Kengashining
2026-yil 9-iyundagi
VII-23-84-3-46-K/26 -son qaroriga
1-ilova

**Sharof Rashidov tumanida Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan tuman
markaziy ko'chalari bo'yidagi tadbirkorlik subyektlari bilan tuzilgan
shartnoma asosida chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish
xizmatini ko'rsatganlik bo'yicha belgilangan tariflar narxi to'g'risida
MA'LUMOT**

Mahsulot nomi va qisqacha texnik tavsifi	Turi, markasi, qismi yoki model raqami	O'lchov birligi	Mahsulot birligiga cheklangan narxi (tarif, rentabellik, marja) (QQS siz so'm)	
			Joriy narx (tarif)	Korxonalar tomoni taklif qilingan
1	2	3	4	5
Xo'jalik subyektlar (yuridik va yakka tartibdagi tadbirkorlar, korxona- tashkilotlar)dan qattiq maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish xizmati	Qattiq va maishiy chiqindilarni tashib ketish	Kub (m ³)	0	50 000
		Tn (tonna)	0	112 800